

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

**fanidan
amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun**

**USLUBIY QO'LLANMA
I bo'lim**

TOSHKENT 2014

**Djurabekova Z.X. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan
amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy qo‘llanma.
I bo‘lim. -T.: ToshDTU, 2014.**

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Soliqlar va soliqqa tortish” faniga doir masalalar, rasmlar va jadvallar ko‘rinishida yoritilgan.

Mazkur fanga doir ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma barcha ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar soliqlarga doir bilim salohiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olinib tayyorlangan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning soliq siyosatiga chambarchas bog‘liqligi fuqarolik jamiyatining soliq sohasiga doir bilimga ega bo‘lishini taqozo etadi. Chunki soliqlar muayyan maqsadlarni ko‘zlashdan tashqari jamiyatning ijtimoiy farovonligini yaxshilashga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonida talaba ushbu fanni yuqori darajada o‘zlashtirilishida, fanga doir yuqori bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishida uslubiy qo‘llanmaning o‘rni beqiyosdir.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta’limning uni tayyorlashda qo‘yilgan talablariga, jumladan, o‘quv va o‘quv ishchi dasturlariga mos ravishda tuzilgan. Qo‘llanmada mavzularga doir nazariy va amaliy asoslar tushunarli yoritilgan. Ayniqsa, fanga doir mavzularni mustaqil o‘rganish uchun nazorat va test savollari, masalalar, adabiyotlar ro‘yxati jamlangan.

Ushbu uslubiy qo‘llanmadan noiqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun seminar va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda foydalanish tavsiya etiladi.

Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etishga tayyorlandi.

**Taqrizchilar: Tursunkodjayev M.L.-ToshDTU professori, i.f.d.
Ivatov I. – TDIU professori , i.f.d**

KIRISH

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni tarkibiy qayta qurish, islohotlar samarasini oshirish borasida bir qator izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar asosiy yo‘nalishlari sifatida soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, bundan asosiy maqsad – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat byudjeti o‘rtasida majburiy to‘lovlar bilan iqtisodiy munosabatlarga o‘zaro erishishdan iborat. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishing muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqilib, uning taktika va strategiyasi aniqlangan holda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va davlat byudjeti manfaatlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan. Bunday uyg‘unlikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri – soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat byudjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta’minlagan holda soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatları ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etmasligiga erishishdan iborat. So‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining zimmasidagi soliq yuki kamayib, uning oqibatida iqtisodiy o‘sishga erishilmoqda. Bu borada Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek : “Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o‘sish , ko‘p jixatdan, iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog‘liq”.

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlaganidan so‘ng, oldimizda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o‘tishdek murakkab jarayonini boshidan kechirgan rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarining ilg‘or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi.

O‘gan davr mobaynida soliq o‘rganlari tarkibini malakali kadrlar bilan ta’minlashga katta e’tibor berildi. Soliq xizmati

xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlashda ularga nazariy jihatdan ko'mak beradigan o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish mihim ahamiyat kasb etadi. Soliq va soliqqa tortish fani iqtisodiy yo'nalishdagi ToshDTU talabalari uchun umum kasbiy-mutaxassislik fan hisoblanib, talabalar ushbu fanni o'qib o'rganish orqali jamiyat taraqqiyotidagi roli hamda ahamiyati xususida nazariy bilimlarga ega bo'lib, soliqlarning obyektiv zarurligini anglab yetgan holda mavjud soliqlarini hisoblash va tolash tartiblari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Qolaversa, ushbu fan talabalarning o'z tanlagan sohalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq tushunchasi paydo bo'lganidan boshlab, uni joriy qilish va rivojlantirish bilan muntazam shug'ullanib kelingan. Soliqlar bo'yicha klassik iqtisodchi olimlardan A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, N.Turgenev, D.Yum, A. Laffer hamda xozirgi zamon iqtisodchi olimlardan R.Kempbell, K. Makkonel, V.Tverdoxlebov, S.Fisher, A.Voznesenskiy, V. Gluxov, B.Teyt, E.Glazova, D. Cherniklarning asarlarida soliq tushunchasi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, respublikamiz iqtisodchi olimlardan I.Karimov, Q.Yahyoyev, M. Sharifxodjayev, S. G'ulomov, T.Malikov, E.E.Gadoyev, O.Olimjonov, M.Alimardonov, A.Jo'rayev, B.Toshmurodova, N.Qo'ziyeva, Sh. Toshmatov asarlarida soliqlar va soliqqa tortish munosabatlari to'g'risida fikr yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmani yaratish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning soliqlar bo'yicha olib borgan ilmiy ishlardan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan me'yorit hujjatlar va internet tarmog'i ma'lumotlaridan hamda Davlat soliq qo'mitasi hisobot materiallaridan foydalanildi. O'quv qo'llanmaning ayrim paragrflarini tayyorlashda professor Mahkamova M.A., katta o'qituvchi Djo'rabekova Z.X. lar ishtirok etishgan.

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan munosabatlarning rivojlanishi soliqlar soliq tizimi va soliq siyosatida keskin o'zgarishlar bo'lishini taqozo etdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida soliq sohasida qabul qilingan qonunlar va qarorlar mavjud muammolarni hal qilishga imkon yaratda.

O'zbekistonning Mustaqil soliq tizimini yaratish O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 15- fevraldagagi "Korxonalar, tashkilotlar va

birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi 1993-yil 7-maydag‘i “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonunlarini qabul qilishdan boshlandi. Bu Qonunlar bo‘yicha kiritilgan soliqlar yildan yilga takomillashtirilib borildi. 2007-yil 25-dekabrda qo‘srimcha va o‘zgarishlar kiritilgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi. Keyingi yillarda ham davr talabidan kelib chiqqan holda Soliq kodeksining tegishli moddalariga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” kitobida: “Islohotning hozirgi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlasdh birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog‘da soliq tizimi birinchi galda rag‘batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak”, deb ta’kidlagan.

Soliq tizimini takomillashtirish maqsadida soliq xizmati tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni hayotga tadbiq etish tadbirlarini amalga oshirish jarayonida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirishda ta’lim berishning nazariy, amaliy, noan’anaviy, usullarini, ilg‘or pedagogik texnologoyalarni qo‘llash davr talabidir. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ushbu o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi.

1 MAVZU. “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANINI O‘QITISHNING ZARURLIGI, MAQSADI VA VAZIFALARI SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Reja.

- 1.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari va obyektiv zarurligi.
- 2.“Soliqlar va soliqqa tortish” fanining vazifalari va funksiyalari.
- 3.Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalari
- 4.Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining elementlari va O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining prinsiplari.


“Soliqlar va soliqqa tortish” fanida soliqlarning nazariy va amaliy masalalari, yani soliqlarning iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari, ularning obyektiv zarurligi, soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, respublikamiz soliq qonunchiligidagi mavjud bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini undirish tartibi, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti atroficha eritib berilgan.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobiga shakllantirilayotgan hozirgi sharoitda mazkur kursni o‘qitishning zaruratini taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur kursda soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirilgan holda eritib berilgan. Kursning maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fanini o‘qitishdan maqsad talabalar ongida soliqlar to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, soliq to‘lovchi subektlardan undirilaetgan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarining huquqiy asoslarini, ular orqali shakllantirilgan davlat byudjeti daromadlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarni hosil qilish hisoblanadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, kursning vazifalari belgilangan (1.1-rasm).

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o‘rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to‘lov larga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, milliy daromadning bir qismi bo‘lgan pul mablag‘larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.


Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o‘z funksiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o‘zi bajaradigan funksiyalarga ega bo‘lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda, kategoriyaning haetda ko‘p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlarini tushunish lozim.




1.1-rasm. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining vazifalari

Soliq kategoriyasi davlatning iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqeylek sifatida yuzaga chiqadi. Soliq tushunchasi tor ma’noda davlat ixtiyoriga soliq to’lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali manbai bo‘lib soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to’lovlar hisoblanadi




1.2-rasm. Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalari



1.3.-rasm. Soliqlarni funksiyalari


Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari soliqqa tortishda ifodalananadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va davlat byudjeti o'rtasidagi iqtisodiy-xuquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi



1.4-rasm. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari


Soliq elementlari tarkibida soliq stavkalarini alohida o‘rin tutadi. Soliq stavkasi deganda soliq obyektining har bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan meer tushuniladi. Soliq stavkalarini mohiyati shundaki, ular soliq obyekti, soliq birligi va soliq normalariga asoslangan holda soliq mexanizmini samarali ishlashini taminlaydi.

Soliq stavkalarini ikki xil ko‘rinishda: qatiy va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalanadi




1.5-rasm. Soliq stavkalarining ko‘rinishlari

Soliq stavkasi bilan soliqqa tortish obyekti o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasiga qarab soliq stavkalarini proportsional, progressiv va regressiv kabi turlarga ajratish mumkin. Soliq stavkalari, undirilishiga, mohiyatiga va amal qilishi nuqtai nazaridan bir necha turlariga ajratiladi.




1.6- rasm. Soliq stavkalarining turlari

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mayjud




1.7-rasm. Soliqqa tortish usullari

Soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan. Soliqqa tortish tamoyillarini shartli ravishda soliqqa tortishning klassik va zamonaviy tamoyillariga ajratish mumkin.




1.8-rasm. Soliqqa tortishning klassik tamoyillari



1.9-rasm. Soliqqa tortishning zamonaviy tamoyillari

Soliq tog‘risidagi qonun xujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi soliq to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining oshkoraliqi va soliq to‘lovchining xaqligi prinsiplariga asoslanadi. Soliq to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining qoidalari soliq kodeksida belgilangan prinsiplarga zid bo‘lishi mumkin emas.



1.10- rasm. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining prinsiplari

1-MAVZULAR BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

1. “Soliq” tushunchasiga ta’rif bering.

- A. Soliq deganda davlat byudjetiga undiriluvchi majburiy to‘lov tushuniladi**
- B. Yuridik shaxslar tomonidan byudjetga undiriladigan to‘lovlardan tushuniladi**
- C. Jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to‘lanadigan majburiy to‘lovlardan tushuniladi**
- *D. Soliqlar deganda muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi**

2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini aniqlang.

- *A. Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarida namoyon bo‘ladi**
- B. Davlatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda namoyon bo‘ladi**
- C. Sohalar o‘rtasida mutanosiblikni taminlashda namoyon bo‘ladi**
- D. Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlardan hisobiga davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda namoyon bo‘ladi**

3. Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalarini ko‘rsating.

- A. Soliqlar**
- B. Majburiy to‘lovlardan**
- C. Soliqsiz daromadlar**
- *D. Hamma javoblar to‘g‘ri**

4. Soliqlarning qanday o‘ziga xos belgilari mavjud?

- A. Majburiylik, foizlilik, muddatlilik**
- *B. Majburiylik, davlat byudjetiga tushishlik, qatiylik, ekvivalent sizlik**
- C. Majburiylik, muddatlilik**

D. Davlat byudjetiga tushishlilik

5. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?

A. Fiskal, tartibga solish, nazorat, byudjetga tushish

***B. Fiskal, tartibga solish, rag‘batlantirish, nazorat, axborot bilan taminlash**

C. Foiz olish, tartibga solish, rag‘batlantiruvchi, axborot bilan taminlash

D. Rag‘batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan taminlash, byudjetga tushish

6. Qaysi satrda soliq elementlari keltirilgan?

A. Soliq turlari

B. Soliq agenti, soliq to‘lovchi va soliq solish obyekti

***C. Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to‘lash tartibi**

D. Soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblash va to‘lash tartibi

7. Soliq stavkasining turlarini aniqlang.

A. To‘g‘ri, proportsional

B. O‘sib boruvchi, kamayib boruvchi

***C. Proportsional, progressiv, regressiv**

D. Regressiv, qatiy

8. Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?

***A. Kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqqa tortish**

B. To‘g‘ri va egri

C. Bevosita va bilvosita

D. Hammasi to‘g‘ri

9. Soliqqa tortishning klassik tamoyillarini ko‘rsating.

***A. Tenglik, maqbullik, qulaylik, arzonlik**

B. Soliq stavkalarini qiyoslash

C. Majburiylik

D. Ijtimoiy adolat tamoyili

10. Soliqlarning soliqqa tortish obyekti bo‘yicha guruhlarini ko‘rsating.

A. Mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlari

***B. Oborotdan, daromaddan, mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar**

C. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

D. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar, xarajatlariga qarab olinadigan soliqlar

11. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi prinsiplarini ko‘rsating.

A. Oddiylik va holislik

***B. Soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi va soliq to‘lovchining haqligi prezumptsiyasi**

C. Tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash

D. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish

12. Soliqlar byudjetga tushishiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A. Egri va to‘g‘ri soliq

B. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq

C. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq

***D. Umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘ovlar**


2 MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I

Reja.

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati. Soliq solish obyekti va bazasi.
2. Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari, daromadlari tarkibi va xarajatlari.
3. Solik imtiyozlari va stavkalari.


Tayanch iboralar: stavka, narx, tadbirkor, tijorat, foyda, rezident, norezident, kodeks.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i umum davlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi (3.1-diagramma).




So‘nggi yillarda soliq to‘lovchilarning daromadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va yagona ijtimoiy to‘loving stavkalari sezilarli darajada pasaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi 2000 yilda 31 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2007 yilga kelib bu ko‘rsatkich 10 foiz qilib belgilangandi yoki soliq stavkasi 21 foizga kamaydi (3.2-diagramma).



SOLIQ TO'LOVCHILAR


Soliq kodeksiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilari bo‘lib, moliya yilida soliqqa ortiladigan foydaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.



2.1-rasm. Foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar

SOLIQ SOLISH OBYEKTI

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining foydasi hamda rezident va norezidentlarning chegirmalar qilinmagan holda to‘lov manbaidan soliq solinadigan daromadlar hisoblanadi.



2.2-rasm. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekti

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA


Soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bazasi quyidagicha aniqlanadi

**Foyda solig‘i bazasining Daromadlar - Xarajatlar
Chegirilmaydigan xarajatlar - Hisobot davrining soliq solinadigan
bazadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari - Imtiyozlar**


Yuridik shaxslarning foydasi respublikamiz buxgalteriya qonunchiligiga muvofiq aniqlanadi.

Respublikamizda xo‘jalik yurituvchi subektlar-yuridik shaxslarning mahsulot (ish, izmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asosini O‘zR VM ning 1999 yil 5 fevraldaggi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom belgilaydi




2.4-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo‘lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag‘larni kiritish mumkin.




2.5-rasm. Jami daromadning tarkibi



2.5-rasm. Boshqa daromadlar tarkibi

Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar xaqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko'ra (141-modda) xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.



2.7-rasm. Chegirib tashlanadigan xarajatlar

SOLIQ IMTIYOZLARI

Mamlakatimizda olib borilaetgan soliq siyosatida soliq imtiyozlari asosan investitsion faoliyatni rag'batlantirishga, ishlab chiqarishni yangi texnik va texnologiya asbob-uskunalar bilan qayta modernizatsiya qilish hisobiga korxonalar moliyaviy holatini faollashtirish, mamalakatimiz eksport salohiyatini ko'paytirishga qaratilgan. Soliq imtiyozlarini belgilashda ayrim toifa soliq to'lovchilarni soliqlardan to'liq yoki vaqtincha ozod qilish yoki soliqlarni kamaytirish bilan birgalikda korxona ixtiyorida imtiyoz hisobiga qoladigan mablag'lardan maqsadli va oqilonqa foydalanish maqsad qilib qo'yilmoqda

Foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan yuridik shaxslar (O‘zR SK 158-modda)

→ Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilar» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari

→ Davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari

→ Jazoni ijro etish muassasalari

→ Ichki ishlar organlari xuzuridagi qo‘riqlash bo‘linmalari

2.8-rasm. Foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan yuridik shaxslar


Yuridik shaxslarning foyda solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi 2004 yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2005 yilda 26 foizga tushgan. 2006 yilga esa 24 foiz, 2007 yilda 20 foiz, 2008 yilda 18 foiz, 2009 yilda 15 foiz, 2010 yilda 12 foiz va 2011 yilda 10 foiz qilib belgilangan. 2012 yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari yanada takomillashtirildi (2.1-jadval)

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq stavkalari

| No | To‘lovchilar | Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da soliq stavkalari |
|----|--|--|
| 1 | Yuridik shaxslar (2-3 bandlardagidan tashqari) | 10 |
| 2 | Tijorat banklari | 15 |


| | | |
|---|---|---|
| 3 | Auktsionlar o‘tkazishdan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug‘ullanishga litsenziysi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek, norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar | 35 |
| 4 | O‘zi ishlab chiqargan tovarlar (ish, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksport qiluvchi korxonalar uchun sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha | belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi |
| 4 | sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori | belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi |
| 5 | 1-bandda ko‘rsatilgan xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo‘llab haq to‘langan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bo‘yicha | belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi |

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘limgan va to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi



2.11-rasm. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to‘lov manbaida soliq solish stavkalari

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi



2.12-rasm. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti turlari

2 -MAVZU BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

- 1. Yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i qachon joriy etilgan?**
*A. 1991 yil 1 yanvardan
B. 1992 yil 14 yanvardan
S. 1993 yil 6 maydan
D. 1995 yil 1 yanvardan

- 2. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to‘laydilar?**
A. O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlaridan manbalaridan
*B. O‘zbekiston Respublikasida olgan manbalaridan
C. O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyatlaridan manbalaridan
D. Soliq to‘lovchining hohishiga ko‘ra to‘lanadi

- 3. Yuridik shaxslarning foyda solig‘i solish obyektini aniqlashda jami daromaddan moliyaviy jarima va penya summalarini chegirib tashlanadimi?**
- A. Chegirib tashlanadi
- *B. Chegirib tashlanmaydi
- C. Faqat moliyaviy jarima summasi chegirib tashalandi
- D. Faqat penya summasi chegirib tashlanadi
- 4. Xayriya maqsadlariga o‘tkazilgan mablag‘lar soliqqa tortiladimi?**
- A. Tortilmaydi
- B. Foyda solig‘i bazasining 2 % miqdoridan oshgan qismidan tortiladi
- *C. Foyda solig‘i bazasining 1 % miqdoridan oshgan qismidan tortiladi
- D. Foyda solig‘i bazasining 5 % miqdoridan oshgan qismidan tortiladi
- 5. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning dividend va foizli daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?**
- A. 12 %
- B. 13 %
- C. 15 %
- *D. 10 %
- 6. Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo‘lsa:**
- *A. U faqat bir marta daromaddan chegiriladi
- B. Har bir toifasi bo‘yicha alohida chegiriladi
- C. Chegirma qilinmaydi
- D. Xarajatlar belgilangan meer darajasida chegiriladi

7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining asosiy stavkasi 2008 yil 1 yanvardan qancha qilib belgilangan?
- A. 18
B. 12
C. 7
***D. 10**
8. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalarini kim belgilaydi?
- *A. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**
B. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
S. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
D. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
9. Yuridik shaxslarning mahsulot (ish, xizmat)larni eksporti hajmi umumiylab chiqarish hajmida 30 % va undan yuqorini tashkil etsa, mol-mulk solig‘ini qanday stavkada to‘laydilar?
- A. Belgilangan stavkadan 20 % ga kamaytiriladi
V. Belgilangan stavkadan 25 % ga kamaytiriladi
S. Belgilangan stavkadan 35 % ga kamaytiriladi
***D. Belgilangan stavka 2 baravarga kamaytiriladi**
10. Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha dividendlar va foizlar soliqqa tortiladimi?
- A. Soliqqa tortiladi
***B. Ozod etiladi**
S. Qisman soliqqa tortiladi
D. Imtiyozli stavkalarda tortiladi

3 MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I

Reja:

- 1.Soliq to‘lovchilari.
- 2.Soliq solish bazasi va stavkalvri.
- 3.Soliq imtiyozlari va jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari
- 4 Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tartibi.

Tayanch iboralar: yuridik shaxs, jismoniy shaxs, rezident, nerezident daromad, xarajat

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisobladi. “Jismoniy shaxslar daromadidan soliq olish stavkasi ham tubdan qayta ko‘rib chiqildi va kamaytirildi. Natijada so‘nggi etti yilda iqtisodietda umumiy soliq yuki 40 foizdan 27 foizga pasaytirildi. Shunga muvofiq korxonalarning moliyaviy resurslari ham tegishli ravishda oshdi” (Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini taminlash – barcha islohot va o‘zgarishlarning bosh maqsadidir. //Xalq so‘zi. 2008 yil 9 fevral)

Respublikamizda izchil olib borilaetgan soliq siyosatida jismoniy shaxslardan olinadigan soliq stavkalarini pasaytirishga alohida etibor qaratilmoqda. Jumladan, daromad solig‘ining eng yuqori stavkasi 2000 yilda 40 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2007 yilda bu ko‘rsatkich 25 foizni tashkil etdi eki ushbu davrda soliq stavkasi 15 foizga kamaygan.

Jismoniy shaxslarning daromad solig‘ining stavkalari pasaytirilishi bilan birgalikda ularning soliqqa tortish bazasi ham kengaytirildi. Masalan, 2002 yilda eng kam ish haqining 4 barobargacha miqdoridan 13 foizda soliq undirilgan bo‘lsa, 2007 yilda eng kam ish haqining 5 barobari, 2008 yilda eng kam ish haqining 6 barobari 13 foizda soliqqa tortilishi belgilandi. Daromad solig‘ining o‘rtacha stavkalari ham tahlil qilinaetgan davrda 5 foizga kamaytirildi.

2002 yilda daromadning eng kam ish haqining 8 barobaridan yuqori qismi 33 foizli stavkada soliqqa tortilgan bo‘lsa, 2007 yilda soliqqa tortiladigan baza eng kam ish haqining 10 barobarigacha kengaytirildi va soliq stavkasi 25 foizgacha tushirildi. Bu jismoniy shaxslardagi soliq yukini sezilarli darajada kamayishiga olib keldi

**2012-2013 yillarda jismoniy shaxslar daromad solig‘i
shkalasi va stavkalarining o‘zgarishi**

3.1-jadval

| Soliq solinadigan daromad miqdori | Soliq summasi |
|--|--|
| 3979500 so‘mgacha | Daromad summasining 8% |
| 3979500 so‘mdan 7959000 so‘mgacha | 318360 so‘m+ 3979500 so‘mdan ortiq summaning 16% |
| 7959000 so‘mdan yuqori | 955080 so‘m+7959000 so‘mdan ortiq summaning 22% |
| 2013 yil eng kam ish haqi miqdori 91530 so‘mni tashkil etadi. | |

1-misol

A.A.Alievga oktyabr oyida jami 1764500 so‘m miqdorida ish haqi hisoblangan (jumladan lavozim maoshi – 705800 so‘m, lavozim maoshga ustama (50%)- 352900 so‘m, 2013 yilning III choragi uchun mukofot – 705800 so‘m).

A.A.Aliyevning yanvar-oktyabr oylari uchun jami daromadining summasi 13864400 so‘mni tashkil etadi ($12099900 + 1764500$). Bunda A.A.Aliyevning jami daromadining tarkibida unga yil boshidan taqdim etilgan qimmatli sovg‘alarning umumiyligi summasi (mart oyida 250000 va may oyida 250000 so‘m) 500000 so‘mni tashkil etadi. Ushbu summadan 477540 so‘m (79590×6) A.A.Aliyevning soliq solinadigan daromadiga kiritilmaydi.

Bundan tashqari, oktyabr oyi uchun A.A.Aliyevning imtiyozi (O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 180-moddasi 2-qismining 8-bandisi) miqdori 318360 so‘mni tashkil etadi. (79590×4). Yanvar – oktyabr oylari uchun imtiyozning jami summasi 3183600 so‘mni tashkil etadi.

($318360 + 318360 + 318360 + 318360 + 318360 + 318360 + 318360 + 318360 + 318360$).

Yanvar – oktyabr oylari uchun yuqoridagi imtiyozlarni hisobga olgan holda A.A.Aliyevning soliq solinadigan daromadinig summasi 10203260 so‘mni tashkil etadi. ($13864400 - 477540 - 3183600$).

Yanvar – oktyabr oylari uchun undirilishi lozim bo‘lgan soliqning umumiyligi miqdori (yuqorida keltirilgan shkala bo‘yicha) 1448817,20 so‘mni tashkil etadi. [955080 + (10203260 - 79590000)*22%] oktyabr oyi uchun undurilishi lozim bo‘lgan soliq miqdori (ilgari yil boshidan ushlab qolingga soliqlar chegirilgan holda) 238560,80 so‘mni tashkil etadi. (1448817,20 – 1210256,40).

A.A.Aliyevning yanvar – oktyabr oylari uchun soliq solindigan daromadi 10203260 so‘mni tashkil etadi. Uning yanvar - oktyabr oylari uchun jamg‘arib boriladigan pensya hisob varag‘iga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pensya badalarining umumiyligi miqdori 102032,60 so‘mni tashkil etadi. (10203260 * 1%) oktyabr oyi uchun jamg‘arib boriladigan pensya hisob varag‘iga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pensya badalarininig miqdori (ilgari yil boshidan o‘tkazilgan badallar chegirilgan holda) 14461,40 so‘mni tashkil etadi. (102032,60 – 87571,20) oktyabr oyi uchun byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan soliqning miqdori 224099,40 so‘mni tashkil etadi. (238560,80-14461,40)

A.A.Aliyevning oktyabr oyi uchun ish haqining majburiy sug‘urta badallari hisoblanadigan summasi 1764500 so‘mni tashkil etadi. Oktyabr oyi uchun pensya jamg‘armasiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ish haqidagi majburiy sug‘urta badallari 105870 so‘mni tashkil etadi. (1764500*6%).


Bundan tash qari, O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2005 yil 13 apreldagi ПФ - 3596 – sonli farmoniga muvofiq A.Aliyev uy – joy komunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha oylik kompensatsiya pul to‘lovlari beriladigan shaxslar imtiyozli toifalarning ro‘yxatiga kiradi. Shunga muvofiq u eng kam ish haqining 45% miqdorida oylik kompensatsiya pul to‘lovlari berilishi lozim.

2013 yil oktyabr oyida eng kam ish haqi miqdori 91530 so‘mni tashkil etadi.

Shularga asosan A.A.Aliyevga oktyabr oyiga 41180,50 so‘m (91530*45%)

Pensya jamg‘armasidan olish uchun kengi oyning 10- kunidan kechiktirmastan tuman (shaxar) ijtimoiy ta’milot bo‘limiga belgilangan shakl bo‘yicha buyurtma taqdim etish lozim. Tegishli summalar maxsus hisob raqamiga kelib tushgach A.A.Aliyevga to‘lanishi lozim. Soliq kodeksiga ko‘ra moliya yilda soliq solinadigan daromadiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to‘lovchilar hisoblanadi.


Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va nerezidentlarga bo‘linadi



3.1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilar


SOLIQ TO'LOVCHILAR

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi soliq solish obyekti hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan baza bo'lib, jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmida ularning jami yillik daromadlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) eki tekinga olgan pul exud boshqa mablag'lar kiradi.



3.2-rasm. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi


Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovleri hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash tarzidagi daromadlar ham kiradi.



3.3-rasm. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromatlariga foizlar .devidentlar .mol-mulkni ijara ga berishdan olingan daromatlar.jismoniy shaxslarga


tegishliy bo`lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromatlar.royaldi va shu kabi qonunchilikda ko`zda tutilgan daromatlar kiradi,



3.4-rasm. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari

Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlariga jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan, lekin tovar (ish, xizmat)larning to'liq eki muayyan qismi ish beruvchi tomonidan to'lab berilgan daromadlar kiradi.


Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari (O'zR SK 177-modda)



3.5-rasm. Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga (Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlardan tashqari) quyidagilar kiradi

**Jismoniy shaxslarning
moddiy naf tarzidagi
daromadlari
(O‘zR SK 178-modda)**




3.6-rasm Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari

SOLIQ STAVKALARI

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi



3.7-rasm Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari


2008 yildan jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi quyidagi jadval ma’lumotlari asosida hisoblanadi.

3.2-jadval

**Shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari
(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013yil 12 dekabrdagi
PQ-744 sonli qarori)**


| Soliq solinadigan daromad | Soliq stavkasi |
|---|---|
| eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha | daromad summasining 8 foizi |
| eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan (+1 so‘m) o‘n baravari miqdorigacha | eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan olinadigan soliq + olti baravardan oshadigan summaning 16 foizi |
| eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan (+1 so‘m) va undan yuqori summadan | eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o‘n baravardan oshadigan summaning 22 foizi |

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga belgilangan eng kam stavka bo‘yicha soliq solinadi



3.8-rasm Daromadlarning alohida turlariga solinadigan soliq stavkalari


Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbaida chegirmalarsiz, quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi



3.9-rasm Jismoniy shaxslarning – O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmanan daromadlariga solinadigan soliq stavkalari

SOLIQ IMTIYOZLARI

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar mazkur soliqning muhim elementlaridan biri bo'lib, asosan ijtimoiy yo'naltirilgan imtiyozlar shaklida namoyon bo'ladi.




3.10-rasm Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar

**Jismoniy shaxslarning
soliq solinmaydigan
daromadlari
(O‘zR SK 179-modda)**



3.11-rasm Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari



3.12-rasm To'liq ozod qilingan jismoniy shaxslar

**Qisman ozod qilingan jismoniy shaxslar
(daromad olingan har bir oy uchun eng kam
ish haqining to‘rt baravari miqdoridagi
daromadlar bo‘yicha)
(O‘zR SK 180-modda)**

(O‘zR SK 171-modda)

«O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari va boshqalar

Xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o‘tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo‘lib, 1941–1945 yillardagi urush qatnashchilari va boshqalar

Leningrad shahrida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar

O‘n va undan ortiq bolasi bor ayollar

Sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari

Xizmatni Afg‘oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo‘lgan qo‘sishlarning cheklangan kontingenti tarkibida o‘tagan harbiy xizmatchilar hamda o‘quv va sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar

Ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilarini xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi eki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo‘lib qolganlar

II Xizmatni Afg‘oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo‘lgan qo‘sishlarning cheklangan kontingenti tarkibida o‘tagan harbiy xizmatchilar hamda o‘quv va sinov yig‘inlariga

Bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari

Ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘limgan bolalari bor yolg’iz onalar

Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar


Bolaligidan nogiron bo‘lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri

3.13-rasm Qisman ozod qilingan jismoniy shaxslar (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha)

JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI DYEKLARATSIYA USULIDA SOLIQQA TORTISH TARTIBI

Deklaratsiya – soliq idoralariga soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o‘z ichiga olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi malumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to‘lovchining hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtida davlat byudjetiga to‘lashga majbur etadigan xujjat hisoblanadi.


Soliq kodeksiga ko‘ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi




3.14-rasm Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash

Jismoniy shaxslar doimiy istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organlariga jami yillik daromadlari haqida deklaratsiyani quyidagi muddatlarda taqdim etishlari kerak (4.14-rasm)

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to‘lash chog‘ida deklaratsiya topshirish orqali soliqlar quyidagi muddatlarda to‘lanadi



3.15-rasm Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi



3.16-rasm Deklaratsiya bo'yicha soliq to'lash tartibi

3 -MAVZU BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

- 1. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to‘lovchilari kimlar?**
A. O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari
*B. Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar
C. Nerezident jismoniy shaxslar
D. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari
- 2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi nimadan iborat?**
A. Mehnat haqi, mulkiy daromadlar
B. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mehnat haqi
S. Mehnat haqi, boshqa daromadlar
*D. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar, boshqa daromadlar
- 3. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi:?**
*A. Rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan to‘lovlar, kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiya) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash
B. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari
C. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar
D. Foiz va dividend ko‘rinishida olingan daromadlar
- 4. Jismoniy shaxsning quyida keltirilgan qaysi daromadlari daromad solig‘idan ozod qilingan?**
*A. Olingan alimentlar
B. Ish haqi to‘lovleri
S. Ijara to‘lovleri
D. Tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan daromad

- 5. 1-2 guruh nogironlari uchun daromad solig‘i bo‘yicha qanday imtiyoz ko‘zda tutilgan?**
- A. Soliqqa tortiladigan daromad 30 foizga kamaytiriladi.
B. Soliqqa tortiladigan daromad 50 foizga kamaytiriladi
C. Soliqqa tortiladigan daromad 30 foiz, agar 16 eshgacha ikkita bolasi bor bo‘lsa kamaytiriladi
*D. Har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida kamaytiriladi
- 6. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga qanday daromadlar kiradi?**
- *A. Foiz, dividend, mol-mulkni ijara berishdan kelgan daromadlar
B. Mehnatga haq to‘lash shaklida olingan daromad
S. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad
D. Omonatdan olingan foizlar
- 7. O‘zbekiston rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘ini qaysi sanagacha to‘lashlari lozim?**
- *A. 1 aprel
B. 1 may
C. 1 iyun
D. 1 sentyabr
- 8. 2008 yilda jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq stavkalari necha foiz qilib belgilangan?**
- A. 13, 23, 33
B. 13, 20, 29
*C. 13, 18, 25
D. 13, 21, 33
- 9. Qaysi toifadagi fuqarolar jami yillik daromad to‘g‘risida deklaratsiya topshiradi?**
- A. Hamma toifadagi fuqarolar

***B. Ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo‘lgan hamma toifadagi fuqarolar**

S. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar

D. Faqat o‘rindoshlik bo‘yicha ishlovchilar

10. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning dividend va foiz ko‘rinishidagi oladigan daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?

A. 12 %

B. 13 %

S. 14 %

***D. 10 %**

4 MAVZU. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I

Reja.

1.O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida qo‘shilgan qiymat solig‘ining salmog‘i va soliq to‘lovchilari.

2.Soliq obyekti va soliq solinadigan bazani belgilash tartibi.

3.Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar.

4.Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.

Tayanch iboralar: qiymat,oborot,daromad,byudjet,qo‘shilgan qiymat, egri soliq.

O‘zbekiston soliq tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga aktsiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig‘i esa bir marotaba umumiyligi oborotdan olinar edi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrdagi PQ-744-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra 2008 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 28 foizni, egri soliqlar tarkibida esa 56 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini byudjet daromadlarining asosiy manbai ekanligini bildiradi (4.1-jadval).

4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida qo‘shilgan qiymat
solig‘ining salmog‘i to‘g‘risida malumot*

| Ko‘rsatkichlar | 2011 yil | | 2012yil | | 2013 yil(reja) | |
|--|---------------|-----------------|---------------|-----------------|----------------|-----------------|
| | mln.so‘m | jami nis-n, %da | mln.so‘m | jami nis-n, %da | mln.so‘m | jami nis-n, %da |
| Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami | 404246 0,4 | 100 | 510086 7,9 | 100, 0 | 710825 7,4 | 100,0 |
| Egri soliqlar | 198665 6,3 | 49,1 | 247817 8,1 | 48,6 | 357102 3,6 | 50,2 |
| Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 101735 2,0 | 25,2 | 126169 1,5 | 24,7 | 200086 5,2 | 28,1 |

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilar bo‘lib, amaldagi qonun xujjatlariga asosan ushbu soliqni byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi

SOLIQ TO'LOVCHILAR

(O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-moddasi)

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa

zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan siloq solinadigan oborotlar uchun qo'shilganqiymat solig' to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar

tovarlarni O'zbekiston Respublikasi xududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z extiejlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi жисмоний шахслар бундан мустасно

oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshiraetganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi)

4.2-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar quyidagilardir

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-moddasiga muvofiq quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:



4.2-rasm. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi

Amaldagi soliq kodeksining 198-moddasiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘ining obyekti bo‘lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi:



4.3-rasm Soliq solish obyekti quyidagilardir

**Tovar (ish, xizmat)larni
realizatsiya qilish oboroti
deganda**


yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, yani yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag‘i kelib tushishi davridan qatiy nazar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha byudjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

**Tovarlarning importi
deganda**

O‘zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).


4.4-rasm Tovarlarning importi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 204 va 206-moddalariga muvofiq tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishga doir soliq solinadigan baza va tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazani belgilash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




4.5-rasm tovarlarni import qilishda

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996 yilda 17 foizni, 1997 yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. 2000 yildan hozirgi kungacha soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda




4.6-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi

Qo'shilgan qiymat solig'idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan.



4.7-rasm Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar


**QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA
IMTIYOZLAR**
(O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 208-211-moddalari)



4.8-rasm Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar

HISOB-KITOBLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI


(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 225-moddasi)



4.9-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi

SOLIQNI TO‘LASH TARTIBI

(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 226-moddasi)



4.10- rasm. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjyetga to'lash

4 -MAVZU BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

A. 1991 yil 15 fevraldan

***B. 1992 yil 1 yanvardan**

S. 1993 yil 6 maydan

D. 1997 yil 24 apreldan

2.Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish obyekti nima?

***A. Tovar (ish, xizmatlar) sotilishiga doir oborotlar hamda tovar (ish, xizmatlar) importi**

B. Muomala xarajatlari

C. Ishlab chiqarish tannarxi

D. Soliq to‘langunga qadar moliyaviy natija

3. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar sotish qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladimi?

***A. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi**

B. 20 foizli stavkada solqqa tortiladi

C. Nollik stavka bo‘yicha tortiladi

D. Kamaytirilgan stavkalar qo‘llaniladi

4.Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi?

***A. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga**

B. Stenografiya xizmatlariga

S. Geologiya va topografiya ishlariga

D. Malumotlarni ishlash va axborot talimotiga doir xizmatlariga

5. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiiga kiradi?

- *A. Qo'shilgan qiymat solig'i**
 - B. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq**
 - C. Yer solig'i**
 - D. Mol-mulk solig'i**
- 6. Shahar yo'lovchi transporti xizmatlari (taksi va yo'nalishli taksidan tashqari) qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladimi?**
- A. Nollik stavkada soliqqa tortiladi**
 - B. 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi**
- *S. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi**
 - D. 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi**
- 7. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi.**
- *A. Tovarlar to'liq eki qisman qaytarilganda**
 - B. Sotib oluvchi xohlagan paytda o'zgartirishi mumkin**
 - S. Mahsulot sotuvchi xohlagan paytda o'zgartirishi mumkin**
 - D. Soliq solinadigan bazaga tuzatish umuman kiritilmaydi**
- 8. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan import tovarini belgilang.**
- A. O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxatida mavjud bo'limgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiet qismlarni kiritish**
 - B. Aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari**
- *S. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan meerlari doirasida olib kirilaetgan tovarlar**
 - D. Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tijorat maqsadida olib kirilaetgan tovarlar**

9. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchisi bo‘lgan subektlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘laydilarmi?

- A. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lamaydilar
- B. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini majburiy to‘laydilar
- S. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar faqat import tovarlari yuzasidan QQS to‘laydilar
- *D. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘laydilar

10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi byudjetga qachon o‘tkaziladi.

- *A. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- B. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- S. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- D. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

Masala: Quyidagi ma’lumotlarga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblang (min so‘m)

- 1.Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materiallar- 6500
- 2.Hisobot davrida jo‘natilgan Tovar qiymati – 13200

Yechilishi:

1.Korxona hisobot davrida jo‘natilgan tovarlar bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lmaganligi boyis jami realizatsiyadan soliq to‘laydi, ya’ni:

Sqqs=Stob*SS/100=13200*20%=2640 ming so‘m

(bu yerda, Sqqs – is’temolchilardan undirilgan soliq summasi; Stob – soliqqa tortiladigan oborod; SS – soliq stavkasi)

2.Byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlash uchun hisobot davrida qo‘shilgan qiymat solig‘I bilan xarid qilingan xom-ashyo va materiyallar uchun to‘langan qiymat solig‘ini ayrishimiz lozim, ya’ni:

TqqS=6500*20%=1300ming so‘m

3.Byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisobot davrida jo‘natilgan tovarlar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘idan xarid qilingan xom-ashyo va materiyallar uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining chegrmasiga teng, ya’ni:

SBqqS=Sqqs-TqqS=2640-1300=1340ming so‘m.

5 MAVZU. AKTSIZ SOLIG‘I

Reja

- 1.Aksiz solig‘ini joriy qilinishi va byudjet daromadidagi salmog‘i.
- 2.Aksiz solig‘i tulovchilari va aksizosti tovarlar ro‘yxati.
3. Aksiz solig‘i obyekti va soliq solinadi
- 4.Aksiz solig‘i stavkalar va aksiz markalari.
- 5.Aksiz solig‘ining hisob-kitobi va tulash tartibi.

Tayanch iboralar: egri soliq, aksiz solig‘i, aksiz markasi, narx, tovar, qiymat.

O‘zbekistonda aktsiz solig‘i 1992 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda oborot solig‘i va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga joriy qilingan. Uning qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Aktsiz solig‘i individual xarakterga ega bo‘lib, faqat aktsiz osti tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Aktsiz solig‘i qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo‘natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi.

Aktsiz solig‘i Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, jami byudjet daromadlarida uning ulushi 2006 yilda 18.8 foizni, 2007 yilda esa 18.0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2008 yilda 16.5 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan. Aktsiz solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendentsiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-sod “Bozorni istemol tovarlari bilan to‘ldirishni rag‘batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qaroriga asosan “O‘zDEUAvto” aktsionerlik jamiyatining ishlab chiqaraetgan

avtomobilari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aktsiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, istemol tovarlarining assortimentini ko‘paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarining o‘z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo‘ldi. Bundan tashqari, 2008 yilda ayrim tovarlar (mebel, billur buyumlar, shu jumladan billurdan yasalgan eritish asboblari, video- va audioapparatura) aktsiz osti tovarlari ro‘yxatidan chiqarib tashlandi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtدا aktsiz solig‘ining ulushi davlat byudjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda.

5.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlar va aktsiz solig‘ining salmog‘i to‘g‘risida malumot*


| Ko‘rsatkichlar | 2010 yil | | 2011 yil | | 2012 yil (reja) | |
|---|---------------------------|---------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|-----------------------------|---------------------------------|
| | mln.so ‘m | Jami ga nis- n, %da | mln.su m | Jam iga nis- n, %d a | mln.su m | Jami ga nis- n, %da |
| Davlat byudjeti daromadlari – (maqsadli jamg‘armalar daromad-larisiz), jami | 33108 54 | 100 | 404246 0,4 | 100 | 510086 7,9 | 100 |
| Egri soliqlar | 16279 10 | 49,1 | 198665 6,3 | 48, 6 | 247817 8,1 | 50,2 |
| Shu jumladan: | | | | | | |
| Aktsiz solig‘i | 69262 9 | 18,8 | 760548, 6 | 18, 0 | 915682, 1 | 16,5 |

*Manbaa: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlar, shu jumladan aktsiz solig‘ining salmog‘ini quyidagi diagrammada ham ko‘rish mumkin


5.1- diagramma

Aktsiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aktsiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan aktsiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 229-moddasiga muvofiq aktsiz solig‘i to‘lovchilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi




5.1- rasm. Aktsiz solig‘i to‘lovchilar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 230-moddasiga muvofiq aktsiz solig‘i obyekti bo‘lib quyidagilar hisoblanadi




5.2-rasm. Aktsiz solig‘i solinadigan obyekt

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra quyidagi aktsiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan aktsiz solig‘i solinmaydi:



5.3-rasm. Aktsiz solig‘i solinmaydi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 232-moddasiga muvofiq aktsiz solig‘i solinadigan baza bo‘lib quyidagilar hisoblanadi




5.4-rasm. Soliq solinadigan baza

Amaldagi soliq qonunchiligidagi ko‘ra quyidagi holatlarda aktsiz solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritiladi.

**SOLIQ SOLINADIGAN BAZAGA TUZATISH
KIRITISH**
(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 233-


Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to‘lovchida tuzatish kiritiladi:



5.5-rasm. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish


Aktsiz solig‘i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda va naturada ifodalangan o‘lchov birligiga mutlaq summada belgilanadi .

AKTSIZ SOLIG‘I STAVKALARI
(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 235-
moddasi)



5.6-rasm. Aktsiz solig‘i stavkalari

Aktsiz solig‘i stavkalari va aktsizosti tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Aktsiz solig‘i stavkalari va aktsizosti tovarlar ro‘yxati soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi .



5.7-rasm. Soliq to'lovchilarga

Aktsiz solig'i stavkalari 2012 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 dekabrdagi PQ-744-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, u tovar turlari bo'yicha quyidagicha belgilangan.

5.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aktsizli tovarlarga nisbatan aktsiz solig‘i

STAVKALARI

| Tovarlar nomi | Soliq stavkasi | |
|--|---|--|
| | aktsiz solig‘i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda | bir o‘lchov birligiga so‘mlarda |
| 1 | 2 | 3 |
| 1. Etil spirti (1 dal. uchun) | | 1410 |
| 2. Vino (1 l. tayyor mahsulot uchun)1 | | 3000 |
| 3. Konyak, aroq va boshqa alkogoli mahsulotlar (1 dal. tayyor mahsulot uchun) 1 | | 11300 |
| 4. Tarkibida foizlarda xajmiy ulushda etil spirti (alkogol) bor pivo (1 litr tayyor mahsulot uchun):1 | | |
| - 4,5 gacha (hisobga olinadi) | | 1000 |
| - 4,5 dan yuqori – 6,0 gacha (hisobga olinadi) | | 1300 |
| - 6,0 dan yuqori | | 2200 |
| 5. O‘simlik (paxta) eg‘i (1 tonna uchun): 1 | | |
| - oziq-ovqat yog‘i (salomas va “O‘zbekiston” yog‘ini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog‘dan tashqari); | | 495000** |
| - texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo‘sishga yaroqsiz bo‘lgan) | | 329000 |

| | | |
|---|----|--------|
| 6. Sigaretalar (1000 dona uchun): 1 | | |
| - filtrli | | 5206 |
| - filtrsiz, papiroslar | | 1476 |
| 7. Zargarlik buyumlari | 25 | |
| 8. “O‘zDEUAvto” AJ ishlab chiqargan avtomobillari2 | 29 | |
| 9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari | 11 | |
| 10. Qimmatbaho metallar2 | | |
| 11. Neft mahsulotlari: | | |
| - benzin A-76, AI-80 (1tonnasiga) | | 148000 |
| - benzin AI-91, AI-92, AI-93 (1 tonnasiga) | | 163000 |
| - benzin AI-95 (1 tonnasiga) | | 188000 |
| - dizel yoqilg‘isi (1 tonnasiga) | | 130000 |
| - aviakerosin (1 tonnasiga) | | 18700 |
| 12. Tabiiy gaz2 (aholiga sotiladigan tabiiy gaz xajmi bundan mustasno), eksport bilan birga | 25 | |
| 13. Ishlab chiqarish korxonalari tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz (“Uztransgaz» AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno)2, eksport bilan birga | 26 | |

*a) Basharti aktsiz solig‘i prognozlari bajarilsa hamda unga doir boqimondalar mavjud bo‘lmasa, qonun hujjatlariga muvofiq aktsiz solig‘i summasi quyidagi miqdorlarda “O‘zvinosanoat-holding” holding kompaniyasini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish fondi hisobraqamiga yo‘naltiriladi:

- vinoga (1 dal tayyor mahsulot uchun) belgilangan stavkadan – 410 so‘m;
- konyak, aroq va boshqa algokol mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun) belgilangan stavkadan - 710 so‘m.

b) konyak, aroq va boshqa alkogol mahsulotlari hajmiy ulushida etil spirti 40 foizdan yuqaori bo‘lsa, aktsiz solig‘i stavkasi (1 dal tayyor mahsulot uchun) 18620 so‘m miqdorida belgilanadi.

** Aktsiz solig‘i Davlat byudjetiga 1 tonna uchun 440 550 so‘m stavka bo‘yicha, qolgan qismi esa – Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasdiqlangan Nizomga muvofiq Yog‘-moy oziq-ovqat sanoati uyushmasining maxsus hisobraqamiga o‘tkaziladi.


Izohlar:

- 1) Qatiy miqdorda belgilangan aktsiz solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.
- 2) “O‘zDEUavto” AJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gazga hamda qimmatbaho metallarga aktsiz solig‘ini to‘lovchilar va uni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Tamaki maxsulotlari va alkagolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, shuningdek aksiz solig‘ini to‘liq undirilishi, ko‘rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishining oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 14 avgustdagи 285-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida tamaki maxsulotlari va alkagolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risida” gi qaririga muvofiq 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki maxsulotlari va alkagolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmsandan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish taqiqlandi.


Hozirgi kunda Respublikamiz hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki maxsulotlari va alkagolli ichimliklar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi tomonidan belgilabgan tartibda aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim. (6.8-rasm)

**AKTSIZ TO‘LANADIGAN TOVARLARNI AKTSIZ
MARKALARI BILAN TAMG‘ALASH**
(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 241-moddasi)



5.8-rasm. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarni aktsiz markalari bilan tamg‘alash

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 238-moddasiga muvofiq aksiz solig‘ining soliq davri quyidagicha muddat belgilangan



5.9-rasm. Soliq davri

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasiga muvofiq aktsiz solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi :



5.10-rasm. Aktsiz solig‘ining hisob-kitobi taqdim etiladi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 240-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aktsiz solig‘i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to‘lanadi :

:



5.11-rasm. Aktsiz solig‘ini to‘lash tartibi

5-MAVZU BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

1. Aktsiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- A. 1991 yil
- *B. 1992 yil
- S. 1995 yil
- D. 1998 yil

2. Aktsiz markalarining nominal qiymati aktsiz solig‘i to‘lovi hisobiga

- A. Kiritiladi

B. Faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi

***C. Kiritilmaydi**

D. Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi

3. Aktsiz markalarining joriy etilish yilini ko‘rsating.

A. 1992 yil 1 yanvar

B. 1993 yil 6 may

C. 1995 yil 1 yanvar

***D. 1996 yil 1 oktyabr**

4. Aktsiz solig‘ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.

A. Har chorakda

B. Har 15 kunlikda

***S. Har 10 kunlikda**

D. 1 yilda 1 marta

5. Aktsiz solig‘i stavkalari va aktsiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?

A. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

S. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

D. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

6. Aktsiz solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

A. Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar

B. Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar

C. Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

D. Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar

7. Aktsiz solig‘i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

- A. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarning eksportiga**
- B. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarning importiga**
- S. Berilgan xom ashyodan tayyorlangan mahsulotga**
- D. Vino va vinomateriallariga**

8. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aktsiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lmagan shaxs qaysi vakolatli organ tomonidan aktsiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin?

- A. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi**
- B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**
- *S. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**
- D. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi**

9. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aktsiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza nimani o‘z ichiga oladi.

- A. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini**
- B. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini**
- S. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishslashga berilgan xom ashe va materiallar qiymatini**
- D. Tovarlarning naturada ifodalangan hajmini**

10. Aktsiz solig‘ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinaetgan aktsiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza nima asosida belgilanadi.

- A. Tovarlarning naturada ifodalangan hajmi**
- *B. bojxona qiymati**

S. bojxona qiymati va bojxona boji

D. Shartnomada ko‘rsatilgan qiymati

1.Masala:

Quyidagi ma'lumotlarga asosan aksiz solig‘ini hisoblang(ming so‘m)

1.Korxonaning hisobli bahosi – 2200

2.Maxsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 25%

Yechilishi:

Aksiz solig‘i qo‘yidagicha aniqlanadi:

$$As=O^*A/100=(2200*25)/100=550 \text{ ming so‘m}$$

Yoki:

$$As=2750-2200=550 \text{ ming so‘m}$$

2.Masala: Quyidagi ma'lumotlarga asosan aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblang(ming so‘m)

1.Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materiyallar – 3800

2.Korxonaning hisobli baxosi – 7000

3.Maxsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 11%

3.Masala: 40ming butulka (0,5L dan) aroqni sotishda aksiz solig‘I summasini hisoblang, agarda aroqdan spirtning xajmi 40% ni tashkil etsa

Aksiz solig‘i summasini hisoblang?


6 -MAVZU. YER QARIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

Reja.

- 1.Yer qaridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va soliqni to'lovchilari.
- 2.Yer qaridan foydalilanlik uchun soliq summasini asosiy yer osti boyliklari bo'yicha shakllanishi
- 3.Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliqning hisob-kitobi.
- 4.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari tarkibi.
5. Soliq solish obyekti va bazasi
- 6.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari. Soliq solinadigan bazani kamaytirish

Tayanch iboralar: bonus, mineral, metal, xom ashe, qora metal, rangli metal.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qaridan foydalanganlik uchun soliq umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini taminlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.



6.1-rasm. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olaetgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanishadi.

**Yer qaridan foydalanganlik uchun
soliqni to‘lovchilar
S.K. 243-modda**




Yer qaridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan yer qaridan foydalanuvchilar

Foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshiriyotgan yer qaridan foydalanuvchilar

6.2-rasm. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir. Tayyor mahsulotlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi



6.3-rasm. Soliq solish obyekti

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. O‘zbekistonda qazib olinadigan xom-ashyo turlari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqlashtirilgan stavkalari joriy etilgan (6.1-jadval).

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

| | Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan % da |
|---|--|
| Soliq solinadigan obyekt nomi | |
| 1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar qazib olinishi uchun | |
| Energiya manbalari: | 30,0 |
| Tabiiy gaz | 2,6 |
| Yer ostidan qazib olingan gaz | 20,0 |
| Nostabil gaz kondensati | 20,0 |
| Neft | 3,8 |
| Ko'mir | |
| Rangli va noeb metallar: | 8,1 |
| Tozalangan mis | 1,3 |
| Molibdenli sanoat mahsuloti | 1,3 |
| Kontsentratlangan qo'rg'oshin | 1,3 |
| Metall rux | 10,4 |
| Volfram kontsentrati | |
| Asl metallar: | 5,0 |
| Oltin | 8,0 |
| Kumush | 24,0 |

6.1-jadval (davomi)

| | |
|-----------------------------------|-----|
| Qora metallar: | |
| Temir | 3,9 |
| Kon-kime xom ashesi: | |
| Tosh tuz (ovqatga ishlataladigan) | 1,7 |
| Kaliy tuzi | 0,4 |

| | |
|---|------|
| Natriy sulfat | 0,4 |
| Fosforitlar (grafitlarga) | 4,8 |
| Karbonat xom ashesi (ohaktoshlar, dolomitlar) | 3,3 |
| Glaukonit | 3,3 |
| Mineral pigmentlar | 4,8 |
| Kon-ruda xom ashesi: | |
| Plavik shpatli kontsentrat | 21,2 |
| Tabiiy grafit | 7,8 |
| Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin | 7,9 |
| Kvarts-dala shpati xom ashesi | 6,5 |
| Shisha xom ashesi | 1,8 |
| Bentonitli loy | 4,8 |
| Talk va talk toshi | 3,9 |
| Talkomagnezit | 3,9 |
| Mineral bo‘yoqlar | 5,7 |
| Vollostanit | 3,9 |
| Asbest | 3,9 |
| Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt | 2,3 |
| Bariy kontsentrati | 2,0 |
| Metallurgiya uchun noruda xom ashyo: | |
| O‘tga chidamlı, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi | 3,3 |

6.1-jadval (davomi)


| | |
|---|-----|
| Ohaktoshlar, dolomitlar | 3,9 |
| Kvarts va kvartsitlar | 6,5 |
| Qoliplash qumlari | 1,8 |
| Noruda qurilish materiallari: | |
| Tsement xom ashesi | 2,0 |
| Tabiiy bezaktoshdan bloklar | 1,8 |
| Marmar ushog‘i | 3,8 |
| Gips toshi, ganch | 5,3 |
| Keramzit xom ashesi | 3,0 |
| G‘isht-cherepitsa xom ashesi (qumoqsimon, lessimon jinslar, zichlovchi sifatida lesslar, qumlar va boshqalar) | 3,1 |

| | |
|--|--|
| Gips va angidrit | 3,8 |
| Arralanadigan, xarsangtosh va shag‘al uchun toshlar | 3,8 |
| Qurilish qumlari | 3,0 |
| Tosh-shag‘al aralashmasi, shag‘al aralashmasi, mayda toshlar, shag‘al | 3,8 |
| Qumtoshlar | 1,6 |
| Chig‘anoq | 3,8 |
| Slanetslar | 3,8 |
| Agloporit | 2,5 |
| Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (margellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar) | 1,6 |
| 2. Foydali qazilmalarni qazib olish va mineral xom asheni qayta ishlash jaraenida olingan texnogen hosilalardan foydalanish huquqi uchun | Asosiy foydali qazilma boyligini qazib olganlik stavkasid an 30%i |
| 3. Rangli tosh xom ashesi, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallari namunalarini yig‘ganlik uchun | Ular hisob qiymatida n 5%i |

Respublikamizda yer qaridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklarining 53 turiga nisbatan belgilangan bo‘lsada, byudjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdag‘i yer osti boyliklariga mutloq ravishda bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq summasini asosiy yer osti boyliklari bo‘yicha shakllanishi (foizda)


6.1-diagramma




Hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda jami yer qaridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 39,9 foizi Toshkent viloyatiga, 45,2 foizi Navoiy viloyatiga, 13,0 foizi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgani holda qolgan 1,9 foizi respublikamizning boshqa hududlari zimmalariga to‘g‘ri keladi

Yer qaridan foydalanimanlik uchun soliq summasini Xududlar bo‘yicha taqsimoti

6.2-diagramma




Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi



6.4-rasm. Soliqning hisob-kitobi

O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilardir.

**Soliq to'lovchilar
tarkibi
S.K. 275-modda**



6.5-rasm. Soliq to'lovchilar tarkibi


Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanadi. Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir



6.6-rasm. Soliq solish obyekti

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2009-2013

6.3-diagramma



6.2-jadval

2011 yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari¹


| | 1 kub. metr uchun stavka (so‘m) | | |
|---|--|--|--|
| | | Yer usti suv resurslar i manbala ri | Yer osti suv resursla ri manbal ari |
| Ko‘rsatkichlar | | | |
| 1. Iqtisodietning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlarda ko‘rsatilganlaridan tashqari) | 17,3 | 22,0 | |
| 2. Elektrostantsiyalar | 5,0 | 7,4 | |
| 3. Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari | 9,5 | 12,3 | |
| 4. Yagona yer solig‘i to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jalik korxonalari, dehqon xo‘jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalananadigan jismoniy shaxslar | 0,85 | 1,05 | |

O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga binoan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan ayrim toifadagi yuridik shaxslar ozod qilinadi. 8.3-rasm



6.7–rasm. Soliqdan ozod qilinganlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza ayrim tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 6.8–rasmdagi hajmlarga kamaytiriladi.



6.8–rasm. Soliq solinadigan baza

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi



6.8–rasm. Soliq hisob-kitoblari

1.Masala:

Sanoat korhonasi hisobot davrida 60000 kub.m suv resurslaridan foydalangan bo‘lib, shundan 35 foyizi yer osti manbalaridan, qolgan qismi esa yer usti manbalaridan olingan. Korxona to‘lashi lozim bo‘lgan suv resurslaridan foydalangalik uchun soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

Sanoat korxonalari uchun ushbu soliq stafkalari yer usti manbalaridan olingan suv uchun 1 kub.metrga 640.0 tiyn, yer osti manbalaridan foydalanilgan suv uchun 1 kub.metrga 820.0 tiyn belgilangan

Korxona 15000kub.metr($60000 \times 35\%$) yer osti suvlaridan; 21000kub.metr ($60000 - 15000$) yer usti suvlaridan foydalanilgan.

Solig‘ summasi:

$$21000 \times 640(6.4 \text{ so'm}) = 134400 \text{ so'm}$$

$$15000 \times 820(8.2 \text{ so'm}) = 123000 \text{ so'm} \text{ni tashkil etadi.}$$

2.Masala:

Elektrostansiya hisobot davrida 450000 kub.metr yer usti suv resurslaridan, 50000kub.metr yer osti suv resurslaridan foydalanilgan. Korxona to‘lashi lozim bo‘lgan suv resurslaridan foydalanganlig uchun soliq summasini hisoblang.

Yechulishi:

1.Elektrstansiyalar uchun ushbu soliq stafkalari yer usti manbalaridagi suv resurslaridan foydalanganlig uchun 1 kub.metrga 183.0 tiyn, yer osti manbalaridan foydalanilgan suv uchun 1 kub.metrga 273.0 tiyn belgilangan

2.Foydalanilgan suv xajmidan va belgilangan soliq stafkasidan kelib chiqib soliq summasini hisoblaymiz:

$$450000 * 183.0 (1.83 \text{ so}^{\prime} \text{m}) = 823500 \text{ so}^{\prime} \text{m}$$

$$50000 * 273.0 (2.73 \text{ so}^{\prime} \text{m}) = 136500 \text{ so}^{\prime} \text{m}$$

$$\text{Jami: } 823500 + 136500 = 960000 \text{ so}^{\prime} \text{m}$$

6-MAVZULAR BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad:

A. Davlat byudjetini moliyaviy resurs bilan taminlash

***B. Davlat byudjetini moliyaviy mablag‘lar bilan taminlash va suv resurslaridan samarali hamda**

oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

C. Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

D. Mahalliy byudjet daromadlarini moliyaviy resurs bilan taminlash

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to‘lovchilarini aniqlang.

- *A. O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo‘jaliklari hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar**
- B. O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar**
- S. O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar**
- D. Barcha yuridik va jismoniy shaxslar**

3.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang.

- A. Yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi**
- B. Yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi**
- *S. Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi**
- D. Chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi**

4.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi.

- A. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan**
- *B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan**
- S. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan**
- D. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan**

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2008 yil uchun necha martaga indeksatsiya qilindi.

- *A. 1,5 martaga**
- B. 1,3 martaga**
- C. 1,2 martaga**
- D. 2 martaga**

6.Yuridik shaxs o‘z faoliyatida ro‘yxatdan o‘tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv

resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi soliq organiga to‘laydi.

- A. Ro‘yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga**
 - B. Davlat soliq qo‘mitasiga**
 - *C. Davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qatiy nazar suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga**
 - D. Ro‘yxatdan o‘tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq**
- 7. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilarni aniqlang.**
- A. Yuridik shaxslar**
 - B. Jismoniy shaxslar**
 - C. Yuridik va jismoniy shaxslar**
 - *D. Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar**
- 8. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang.**
- A. Yuridik shaxslar sanoat yo‘sinda dastlabki qayta ishlovdan o‘tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar qiymati**
 - B. Jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan hamda o‘zining xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalilanigan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi**
 - *C. Kavlab olingan tayyor mahsulot hajmining o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymat**
 - D. Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi**
- 9. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning hisoblash tartibini aniqlang.**
- *A. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq uni to‘lovchilar tomonidan mustaqil hisoblab chiqariladi**
 - B. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblanadi**

- C. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq alohida ruxsatnomaga ega bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan hisoblanadi
 - D. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq faqat qayta ishlovchi korxonalar tomonidan hisoblanadi
10. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni jismoniy shaxslar qaysi muddatda byudjetga to‘laydi.
- A. Jismoniy shaxslar yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni hisobot yilining 1 sentyarigacha to‘laydi
 - B. Jismoniy shaxslar yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lamaydi
- *C. Jismoniy shaxslar yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni bir marta keyingi yilning 1 fevraligacha to‘laydi
- D. Jismoniy shaxslar yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni har oyda keyingi oyning 25 kunigacha to‘laydi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Солик кодекси. - Т.: “Норма”, МЖЧ.2008 й.-416 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2009 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги ПҚ-1024-сонли Қарори (2008 йил 24 декабр).

3. Жўраев А., Аманов А. “Соликлар ва соликқа тортиш” фанидан ўқув-услубий комплекс. ТМИ, 2007 йил. -526 б.

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

4..O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturi to‘g‘risida»gi 1474-sonli Qarori.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-maydagagi «Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1529-sonli Qarori.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi» mavzusidagi ma’ruzasi - Т: «Xalq so‘zi». 2012-y. 20-yanvar, №4 (5434).

III. Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

8.Vahobov A. V., Jo 'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T.; «Sharq», 2009. 448-b.

- 9.Гусков С. В. «Налоги в экономике предприятий». Учебное пособие. М.; изд. дом «Дашков и К0», 2005. С. 314.
- 10.Миляков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник. 7-е изд., перераб. и доп. М.; INFRA-M, 2008. С. 520.
- 11.Селезнева Н.Н. Налоговый менеджмент. Учебное пособие. М.; 2007.
- 12.Urazov K. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. T.; «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004-y.

IV. Qo‘shimcha adabiyotlar

- 13.Toshmalov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. - Т.; «Fan va texnologiya». — 2008. 204-b.
- 14.E.Gadoyev, N.Kuziyeva “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”Toshkent – “O‘zbekiston” – 2012 yil. O‘quv darslik.

V. Internet saytlari

- <http://www.soliq.uz//>
- <http://www.bir.uz//>
- <http://www.finstst.ru//>
- <http://www.norma.uz//>
- <http://www.nalog.ru//>

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| 1 MAVZU. “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANINI O‘QITISHNING ZARURLIGI, MAQSADI VA VAZIFALARI SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI | 8 |
| 2 MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I..... | 20 |
| 3 MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I..... | 32 |
| 4 MAVZU. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I..... | 54 |
| 5 MAVZU. AKTSIZ SOLIG‘I..... | 69 |
| 6 MAVZU. YER QARIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO‘LOVLAR | 87 |

Muharrir Sidikova K.A.